

MODALLIKNI KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANISHI.

Hamidova Sayyora Nurmatovna

Farg‘ona politexnika instituti
“O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish” kafedrası

katta o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqola modallikning o‘ziga xos xususiyatlari, tarkibiy qismi, tuzilishi, vositalari hamda muammolariga bag‘ishlangan, ushbu tushunchaning chegaralarini aniqlash, modallik maydonining ichki tuzilishi, uni ifoda etish vositalari va modallikning boshqa til sathlari bilan o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: funktsional-semantik, pragmatik tadqiqot yo‘nalishlari, morfologik, grammatikillokutiv, sintaktik, ekstralingvistik omillar.

Аннотация Данная статья посвящена особенностям, компонентам, структуре, инструментам и проблемам модальности, определению границ этого понятия, внутренней структуры модального поля, средств его выражения, взаимосвязи модальности с другими языковыми уровнями.

Ключевые слова: функционально-семантическое, прагматическое направления исследований, морфологические, грамматические иллюкутивные, синтаксические, экстралингвистические факторы.

Abstract This article is devoted to the specific features, components, structure, tools and problems of modality, defining the boundaries of this concept, the internal structure of the modality field, the means of its expression, and the interrelation-ship of modality with other language levels.

Key words: functional-semantic, pragmatic research directions, morphological, grammatical illocutionary, syntactic, extralinguistic factors. Modallik universal kategoriya sifatida insonning fikrlash jarayoni bilan bog‘liqdir. Kishi dunyoni obyektiv kuzatar ekan, unda ikkitomonlamalik xususiyati hosil bo‘ladi, bu yuqorida aytib o‘tganimizdek, linguallik hamda mantiqiylik. Zamonaviy tilshunoslikning barcha yo‘nalishlarida modallikning turlari tadqiq etildi va bu orqali tilshunoslikning poliparadigmalligi namoyon

bo'ldi. Semantik nuqtayi nazardan konseptlarni ko'rib chiqish grammatik (morfologik, grammatik illokutiv, sintaktik), funktsional-semantik va pragmatik tadqiqot yo'nalishlari barcha turdagi modallarning ifoda darajasining o'zaro bog'liqligini ochib beradi.

***Modallik kategoriyasi.** Fikrning voqelikka bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar va bu ma'nolarning ifodalanish tizimi. Modal ma'no, masalan, modal so'z yoki modal shakllar orqali ifodalanadi.*³⁸

Modallik, uning o'ziga xos xususiyatlari, tarkibiy qismi, tuzilishi, vositalari hamda muammolariga bog'ishlangan ko'plab asarlar shuni ko'rsatadiki, ushbu tushunchaning chegaralarini aniqlash, modallik maydonining ichki tuzilishi, uni ifoda etish vositalari va modallikning boshqa til sathlari bilan o'zaro bog'liqligi to'g'risida mushtaraklik mavjud emas. Qaysidir olim modallikni faqat grammatik kategoriya sifatida talqin qilsa, boshqasi uni konseptual, semantik, kimdir grammatik-semantik, kimdir esa kognitiv kategoriya sifatida baholaydi.

A. Nurmonov modallikni aspekt sifatida tadqiq etgan olimlardandir. O'zbek tilshunosligida bajarilgan ko'plab ishlarda olimning nazariyalari asos bo'lganligiga guvoh bo'ldik. Olim modallikni turli sathlilik kategoriyasiga asoslanib talqin qiladi. Ya'ni turli sathga doir birliklar bir tushuncha – modallik tushunchasi ostiga birlashadi. Demak, modallik kategoriyasi til kategoriyasi sifatida obyektiv mavjuddir.³⁹

Bundan kelib chiqadiki, modallikni kategoriya sifatida shakllantiruvchi vositalar ham turli-tuman. Sababi, modallik tilning turli sathlariga doir bo'lar ekan, uni shu sathlarga xoslashda xizmat qiladigan elementlarning bo'lishi ham tabiiy. Mazkur elementlar esa modallik vositalari bo'lib, ularda ham rang-baranglik kuzatiladi, deyish mumkin. Modallikni tashkil etuvchi vositalar

³⁸Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 159. 60-b.

³⁹Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixovaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, 1992. – B. 82.

olimlarning tasniflarida farqlanadi, ayrimlari ularni grammatik nuqtayi nazardan tasnif qilishsa, ayrimlari kognitiv jihatdan talqinqiladi.

Umuman olganda, bitta modallik kategoriyasining o'zi shuqadar rang-barang vositalarni o'z ichiga olishi ko'plab tilshunoslar orasida muhokamalarga sabab bo'lgan. Ushbu vositalarni umumlashtiradigan yagona belgining yo'qligi esa bu boradagi asosiy muammolardan biridir. Mulohaza yuritilsa, ushbu vositalarning har biri matn tarkibidagi gaplarda mavjud bo'ladi. Birgina gapning o'zi barcha vositalarni o'z ichiga oladi va biror mazmuni ifodalash imkonini yaratadi. Aynan shu sabab turli xil nazariy qarashlarning kesishish nuqtasi bu gap bilan bog'liq ekanligida degan xulosa yasash o'rinli bo'ladi. A.Nurmonovda ham modallik sintaktik hodisa sifatida talqinqilingan, biroq uning semantik, predikativlik belgilari borligini ham aytib o'tadi va modallikni umumiy qilib til kategoriyasi deb atash mumkinligi haqida qat'iy xulosa beradi.

Tilshunoslik kategoriyalariga xos bo'lgan o'zaro ta'sir masalasi modallikka ham xos. Ayrim unsurlar doimiy ravishda modallikka o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi va ushbu kategoriya mana shu ta'sir vositalari orqali yana ham aniq, tushunarli ifodalanadi, tinglovchiga ifodalanayotgan mazmunning mohiyatini to'laroq tushunishga asos bo'ladi. Mana shunday omillardan biri – bu ekstra lingvistik omillardir. Ular modallikning ifodalanishida faol ishtirok etadi. Ekstralingvistik omillarga quyidagilar kiradi: nutq egasining holati, kommunikativ vaziyat, so'zlovchining ijtimoiy ahvoli, ovozning fizik holati va boshqalar. Ekstralingvistik omillar ikkixil bo'ladi: obyektiv ekstralingvistik omillar, subyektiv ekstralingvistik omillar. Obyektiv ekstralingvistik omillarga so'zlovchidan tashqarida bo'lgan voqelik: borliq, joy, vaziyat, nutq ishtirokchilari; subyektiv ekstralingvistik omillarga so'zlovchining ruhiyholati, xarakteri, millati, jinsi, ijtimoiyahvoli, kasbi, maqsadi, nutqiy malakasi kabilar kiradi. Har ikki ekstralingvistik omillar nutqning shakliy-mazmuniy tuzilishida ma'lum vazifa bajaradi". Insonning obyektiv olam bilan bog'liqligi unga nisbatan ma'lum bir munosabatning yuzaga kelishi uchun zamin tayyorlaydi,

tashqi ta'sirlar tufayli yuzaga kelgan ruhiy kechinmalar, his-tuyg'ularni ifodalash, munosabatbildirish, ya'ni baholash zarurati nutq jarayonida tilda mavjud birliklardan keraklisini tanlab olib qo'llashni taqazo qiladi. Bu birliklarning qo'llanilishi turli xil emotsiya ni yuzaga chiqaradiki, ba'zida bu va ziyat bilan bog'langan bo'ladi.

Modallik kategoriyasi bevosita kommunikativ maqsadlarni ko'zlashga qaratilganligi ma'lum. Aksariyat hollarda undalmalar orqali bu vazifa amalga oshiriladi. Matnda murojaat shaklida yuzaga chiqadigan maqsadlar insonning borliq bilan bog'liqligi, unga nisbatan biror munosabatni kelib chiqishiga asos bo'ladi, tashqi ta'sirlar sabab hosil bo'ladigan ruhiy kechinmalar, his-tuyg'ularni ifodalash, munosabat bildirish, o'zining subyektiv bahosini berish lozimligini modallikni tashkil etuvchi birliklardan qulayini, matnga, vaziyatga mosini tanlab olish va uni nutqda qo'llashni taqazo etadi. Bunday birliklarning qo'llanilishi so'zlovchi va tinglovchi orasida turli xil his-tuyg'ular, emotsiyalarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. [1, 159].
2. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojaeva S. O'zbek tilining mazmuni sintaksisi. – Toshkent, 1992. – [2, 82].
3. Saidov S. Modal so'zlarning qo'llanilishi haqida // O'zbek tili va adabiyoti, 1964. - № 4. – [3, 66].